

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FAMILY IN THE FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

Sobirov Jamshidbek

Andijan State University 3 course Student Of History Faculty

Abstract: *Today, together with the positive features of the globalization process, negative features are also being manifested, which is becoming increasingly clear from nationalism and undermining the foundations of national education. This, in turn, places irreplaceable responsibilities on humanity. Ensuring that the growing youth is the main link of the society, the mainstay of the family, and the responsibility of the society, education on the basis of national education is considered an important and important task.*

Keywords: *family, development, society, education, tradition, honesty, courtesy, truthfulness, morality, spirituality*

Introduction

Oila o'zining tarixiy taraqqiyoti davrida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Bu yo'lning o'ziga xos xususiyatlaridan biri jamiyatning o'zaro aloqalari va ijtimoiy vazifalarining tubdan o'zgarganligidir.

Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy tuzilishining o'zgarishi oilaning shakllanishiga, uning o'zaro aloqa shakllariga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, jamiyatning moddiy texnika va ma'naviy yo'nalishidagi o'zgarishlari oila faoliyatining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlar oila qurish, mehr-muhabbat, o'zaro do'stlik va farzand ko'rishni rejalashtirishda o'z ifodasini topmoqda.

Davlatimiz oilalarni o'zining olib boradigan siyosati markazida olib qaraydi. Shu sababli imkoniyat doirasida moddiy va ma'naviy yordam berishga majbur.

Oilaviy tarbiyani maktab, jamoatchilik bilan uyg'unligini ta'minlashdan manfaatdordir.

Adabiyotlar tahlili

Oilaning eng muhim xususiyatlaridan biri insonlar avlodini ko'paytirishdir. Bolalarni ijtimoiy hayotga tayerlash borasida oila ma'lum darajada ijtimoiy tashkilotlar bilan jamiyat taraqqiyetiga hamohang holda faoliyatda bo'lmoqda. Oilaviy tarbiya muammolarini tadqiq etish, asosan ikki yo'nalishda olib borilmoqda. Bir tomonda oilaviy tarbiya pedagogikaning an'anaviy qismi sifatida o'rganilmoqda. Ikkinchi tomondan esa oila sotsiologiya va filologiya yo'nalishida ham tadqiq etilmoqda. Matbuotda e'lon qilingan maqolalarda mazkur sohaga qiziqqan olimlarning oilaviy tarbiya xususiyatlariga ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yondashayotganliklari ma'lum bo'lmoqda.

Bolalarning bolalar yasli va bog'chasida uzoq muddat bo'lishlari ularning kamolotiga, ehtiyoj, qiziqish va muomala xarakteriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Baxtga qarshi hozirgi vaqtda ota-onalarning ishlab chiqarishda ko'plab mashg'ul bo'lishlari sababli o'zlarining to'laqonli tarbiyaviy vazifalarini bajara olmasliklarini tasdiqlamoqda.

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlash mumkin. U yoki bunisining yo'qligi tarbiyaviy jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

A) Bolaning ismi, familiyasi, otasining ismi, tug'ilgan yili, oilada bolalar soni, o'g'il va qizlarning soni, nechanchi farzand ekanligi, qancha vaqtini oilada yoki oiladan tashqarida o'tkazadi.

B) Ota-onalarning yoki oiladagi tarbiyachilarning ismi, familiyasi, ularning ish joylari, kasb-hunarlari, oilaning moddiy ta'minoti, uy sharoiti, ota-onalarning va boshqa oila a'zolarining ma'lumotlari, ularning o'zaro munosabatlari.

V) Oila a'zolaridan kim bolalar tarbiyasi bilan ko'proq shug'ullanadi, tartibga bolalar qay darajada rioya qilishadi, ularning oilada va jamoatchilik joylaridagi xulqi qanday, kattalarga qanday muomala qilishadi.

Obro' qozonish juda murakkab masaladir, buning uchun eng birinchi navbatda to'g'rilik, halollik bo'lishi lozim. Bola kattalarning so'zlari, xatti-harakatlari, ya'ni berayotgan va'da, yurakdan qilinayotgan muomalalariga yoki do'q-po'pisalaridan

qat'iy nazar ularga ishonishi lozim. Ota-onalarga turli tuman va'dalar berishda juda ham ehtiyot bo'lish tavsiya etiladi. Berilgan va'da bajarilmay qolsa, uni to'g'ri va dalillar bilan asoslash lozim. Agar bolaga uy ishlarini bajargani, yaxshi odatlarni namoyish etgani, ota-onalarning topshiriqlarini o'z vaqtida bajarganligi va hokazolar uchun dam olish kuni kino yoki teatrga olib borishga va'da berilgan bo'lsa, har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan va'daning ustidan chiqish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Keyingi yillarda, maktab ma'muriyati, o'qituvchilar, tarbiyachilar oilaviy tarbiyaga, ota-onalarning tarbiya borasidagi obro'larining oshishiga, hurmatga sazovor ota-onalarning hayotiy yo'llari, oilaviy tarbiyadagi tajribalarini targ'ib qilishda, shu asosda bolalarda oila qadri va g'ururini yuqoriga ko'tarish xislatlarini uyg'otishda barcha imkoniyatlardan unumli foydalanmoqdalar.

Oilaviy ijobiy an'analarni bajarish jarayonida katta yoshdagi kishilarning namunasi yoshlarni o'ylashga, fikrlashga, ijtimoiy hayotni tushunishga majbur etadi. Chunki an'analar ma'naviy omillar sifatida bolaga hayotning u yoki bu jabhasida qanday yaxlit tadbir qo'llash, o'zining yoki boshqalarning xulqiy muammosini baholashga yordam beradi.

Tarbiya jarayonida ota-onalar va o'qituvchilarning bolalarni ijtimoiy foydali ishlarga tortish borasidagi mas'uliyati nihoyatda muhimdir. Lekin, oz bo'lsa-da shunday ota-onalar ham borki, ular bolalarining maktabda metallom yig'ish, gul va daraxt ko'chatlari o'tkazishlarini rag'batlantirmaydilar, quvvatlamaydilar. Ularning fikricha, bunday mayda ishlar bolalarining oiladagi, maydonchadagi shaxsiy ishlariga xalal berar emish. Ayrim ota-onalar esa bolalariga kasblar haqida noto'g'ri tushuncha berishadi. Ularning fikricha, kasblar ichida ma'qullari, shuningdek, oilalari sha'niga mos kelmaydigan kasblar borligini ta'kidlashadi. Bolalari tomonidan ota-onalarning bilim, obro'lariga mos kelmaydigan kasbning tanlanishi ularning g'ururiga, izzat-nafsigaga tegadi va hokazo.

Bolani faqat u bilan gaplashganda, nasixat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman, deb o'ylamang. Siz bolani turmushingizning har bir onida, hattoki o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalaysiz. Sizning qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, xursand bo'lishingiz yoki tashvishlanishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday muomala

qilishingiz, kulishingiz, gazeta o'qishingiz - bular hammasi bola uchun katta ahamiyatga ega. Gapingiz ohangi sal o'zgarsa ham, bola buni darrov payqab oladi yeki sezadi, bola fikringizdagi hamma o'zgarishlarni har xil yo'llar bilan bilib oladi, lekin o'zingiz bundan bexabar bo'lasiz. Agar siz uyda qo'pollik yeki maqtanchoqlik qilsangiz yeki ichkilik ichsangiz, undan ham yemoni onani haqorat qilsangiz - siz bolalaringizga nihoyatda katta zarar yetkazgan bo'lasiz, ularga yomon tarbiya bergan bo'lasiz va sizning bu nojo'ya qiliqlaringizning oqibati juda yomon bo'ladi.

Tahlil va natijalar

Yuqorida ta'kidlanganidek, hayotda ko'plab namunali va obro'li ota-onalarimiz ko'p. Agar ota-ona halol mehnat bilan mashg'ul bo'lsa, bola ularni hurmat qilishga majburdir. Ba'zan esa, ishda juda yaxshi mutaxassis bo'lgan ota-onalar bolalariga namuna bo'la olmaydilar. Natijada o'zlari bilmagan holda oilalarida ishyoqmas, ko'cha bezori, erkatoylar kamol topadi.

Bizning nazarimizda bolalari bilan do'st, ularga diqqat-e'tibor bilan qaraydigan, qayg'ulariga hamdard, xursandchiliklarini baham ko'ruvchi, talablarida sabrli, bolalariga doimo ma'naviy ko'maklashuvchi ota-onalargina haqiqiy ma'noda namuna bo'la oladilar. Ularning obro'si halol mehnatlari bilan do'stona munosabatlari, kerak bo'lsa, hatto ayblari uchun kechirim so'rashlari bilan mustahkamlanadi. Inson omilini har tomonlama kamol toptirish, o'zaro yerdam, o'rtoqlik munosabatlarini yanada yaxshilash, shaxsiy oilaviy va ijtimoiy hayetda oddiylik va halollik, hushmuomalalik va rostgo'ylik kabi ma'naviy-axloqiy insonlarga xos bo'lgan sifatlarni yanada takomillashtirish asosida Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish davrimizning eng muhim istiqbolli rejalaridan xisoblanadi. Kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi.

Oila jamiyat hayotini olg'a suruvchi, uni yanada yuksak bosqichlarga ko'tarib ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas'ul bo'lgan g'oyat muhim o'chog'dir.

Jamiyatimiz taraqqiyoti o'zining rivojlanish qonuniyatlariga asoslangan holda shaxs yetukligini taxminlovchi va tarbiya samaradorligini oshiruvchi omillarni vujudga keltirish talabini qo'ymoqda. Shu bilan birga jumhuriyatimiz taraqqiyoti bilan oila, uning barcha hayetiy bosqichlari jiddiy o'zgarishlarga uchrayotganligini

ham esdan chiqarmaslik kerak. Bizning yangi oila vujudga keltirish borasidagi muvaffaqiyatlarimiz shak-shubhasizdir. Oila erkaklar va ayellarning to'la teng huquqligi, oila uchun bab-baravar javobgarligi asosida quriladi. Biroq, yangi oilani vujudga keltirish oddiy ish emas. Bu murakkab jarayon bo'lib, uning o'z muammolari mavjud. Mustaqil oila - uning eng muhim negizlaridan biridir.

Respublikamiz moddiy-texnika bazasining rivojlanishi o'z navbatida oilaning moddiy va ma'naviy kamolotiga, bu esa, o'z navbatida oiladagi bolalar tarbiyasiga u yeki bu darajada ta'sir ko'rsatadi. Mehnatkashlarning turmush sharoitlarining muttasil yaxshilanishiga, farovonlashishiga olib keladi. Oiladagi daromadlarning oshishi, bir tomondan, ota-onalarning bilim saviyalari va madaniy hayetlarining yaxshilanishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, oila a'zolarining yuqori ma'naviy ehtiyejlarining ijobiy shakllanishiga, oilaviy munosabatlarning takomillashuviga, boyishiga, kattalar va kichiklar orasidagi muloqot mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababdan bo'lsa kerak, respublikamizning, jamoatchilikning diqqat-e'tibori oilalarni mustahkamlash, yangi oilalarning qaror topishi va shakllanishiga qaratilmoqda. Chunki yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash davr talabiga aylanib bormoqda.

Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni pedagogika yutuqlari bilan tanishtirish ularning mustahkamligini ta'minlash vositalaridan biridir. Ikkinchi tomondan esa, bu o'z navbatida, bolalarning tarbiyasida tegishli shakl va uslublarni takomillashtirish yo'llaridan biridir. Shuning uchun ham ota-onalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar bilan, tarbiya uslublari bilan qurollantirish nihoyatda zarur.

Xulosa

Tarbiyaga oid bilim berish muammosi faqat ota-onalarning ishi bo'lib qolmasdan, balki barcha mehnatkashlar ommasining ishi, keng ma'noda davlat ahamiyatiga molik ishdir. Respublikamiz qarorlarida ta'kidlanganidek, barcha tashkilotlar, mehnat jamoalari, umuman jamiyat axloqiy sog'lom, ma'naviy boy, mustahkam oilani vujudga keltirish to'g'risida, onalar haqidagi, mamlakatning kelajagi bo'lgan yeshlar haqidagi g'amxo'rlikni kuchaytirishi zarur. Ota-onalarning bolalar tarbiyasi haqidagi, ularni turmushga va mehnatga tayyorlash to'g'risidagi mas'uliyatini oshirish zarur.

Gap shundaki, jamiyatimizdagi har bir to'laqonli shaxs bolalarning tarbiyachisi bo'lishi, yangi insonni har tomonlama kamol toptiruvchi barcha holatlarda, shart-sharoitlarda ishtirok etishi lozim. Har bir yigit-qiz bo'lajak ota-onalardir. Shu sababli jamiyatimiz ularning qanday oila qurishlariga befarq qarab turolmaydi. Respublikamiz bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalash vazifalarini, oilalarning mustahkamligi uchun qo'yilayotgan talablar mehnatkashlarning tarbiyaviy ma'lumotini oshirish zaruriyatini ko'tarib chiqmoqda. Bu masala hozirgi kunda har qachongidan ham muhimdir. Atoqli pedagoglar tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil etish sharoitlaridan biri ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligida, deb hisoblagan edilar. Ota-onalarni tarbiyaga oid va psixologik bilimlar bilan qurollantirmasdan turib oilada tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish mumkin emas. Demak, oila hayotini tarbiyaviy jixatdan to'g'ri tashkil qilish uchun o'qituvchilar, keng jamoatchilik pedagogika fani orqali aholiga yordam berish, ota-onalarga tarbiyaviy bilim berish tizimini ishlab chiqishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6-T. "O'zbekiston" 1998 y. 240-241 betlar
2. Ergashev.I. Glaballashuv:dunyoqarash,ishonch va etiqod munosabati.Fidokor.2004 y.11noyabr.
3. Yoqubov B. Globallashuv davri muammolari. XXI asr 2007 y. 20 sentabr.